

Inson qadri ulugʻ, xotira muqaddas

Mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalikni taʼminlash, bu aziz neʼmatni koʻz qorachigʻidek asrab-avaylash, jamiyatda insonparvarlik, ahillik, oʻzaro totuvlik va hamjihatlik, mehr-oqibat muhitini mustahkamlash masalasiga ustuvor vazifa sifatida ahamiyat qaratib kelinmoqda. Oʻzbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1999 yildan buyon mamlakatimizda 9 may –“Xotira va qadrlash kuni” sifatida keng nishonlanayotgani gʻalabaga munosib hissa qoʻshgan ota-bobolarimizni eʼzozlash, ularga hurmat-ehtirom koʻrsatish, urushda tinchlik uchun jon fido etgan hamyurtlarimiz xotirasini muqaddas bilishda alohida ahamiyat kasbetmoqda. Qutlugʻ ayyom arafasida Gidromeliorativ ishlarni mexinazatsiyalash fakulteti yoshlar ittifoqi yetakchisi tashabbusi bilan bir guruh faol talabalar Xotira maydonida boʻlib, Ikkinchi jahon urushi davrida osuda hayot, musaffo osmon uchun jon fido etgan bobolarimizning aziz xotirasiga yana bir karra hurmat keltirishdi.



Yoshlar bilan ishlash boʻyicha dekan oʻrinbosari O.Roʻzibaev axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov